

## ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOG SHAXSINING O‘RNI VA ROLI

**Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna**

*SamDU Pedagogika va Umumiy psixologiya kafedراسi dotsenti*

**Naimova Fariza Ayubovna**

*Zarmed Universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim va tarbiyada har bir pedagogning roli va vazifalari, burchi va majburiyatlari o‘rganiladi. “Pedagog maqomi to‘g‘risi”dagi qabul qilingan Qonun va ta’lim sohasiga oid qaror va farmonlarda belgilangan pedagog kadrlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar va pedagoglarning huquqlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, tarbiya, pedagog, o‘quvchi, innovatsiya, qonunlar, farmonlar, pedagogik huquq, pedagogik burch, bilim, ko‘nikma, malaka.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются роли и задачи, обязанности и обязанности каждого педагога в образовании и воспитании. Рассматриваются задачи, возложенные на педагогические кадры, и права педагогов, определенные в принятом Законе "О статусе педагога" и постановлениях и указах в сфере образования .

**Ключевые слова:** образование, воспитание, педагог, ученик, инновации, законы, указы, педагогическое право, педагогический долг, знания, навыки, квалификация.

**Abstract.** This article considers the roles and tasks, duties and responsibilities of each teacher in education and upbringing. The tasks assigned to pedagogical personnel and the rights of teachers, defined in the adopted Law "On the Status of a Teacher" and in the decrees and decrees in the field of education, are considered.

**Key words:** education, upbringing, teacher, pupil, innovation, laws, decrees, pedagogical law, pedagogical duty, knowledge, skills and qualifications.

Ta’lim va tarbiya - har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi sanaladi. Insoniyat tarixida har bir buyuk shaxsning ortida sabr-toqatli, bilimli va mehribon ustoz turgan. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar qalbiga nur sochuvchi, ularni jamiyatga foydali inson etib voyaga yetkazuvchi fidoyi insonlardir. Shu bois ta’lim-

tarbiyada pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba’zisi ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a’zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta’kidlaydi.

Ta’lim va tarbiya mazmunining uyg‘unligi tamoyili – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo‘lib, bunda egallangan bilim va ko‘nikmalarni hayotga qo‘llay olishga o‘rgatiladi, hayotda ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan uyg‘unlikda rivojlanishi ta’minlanadi. Yaxlit ta’lim - tarbiya jarayonida ikkala o‘zaro bog‘liq juftlik, ya’ni bilim berish va tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta’limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish, ob’ektiv borliqdagi qonuniyatlarni o‘rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish bilan birga ta’lim tarbiyalovchi ham bo‘lishi kerak.

Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borгани kabi, ta’limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta’lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta’lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg‘ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim - o‘quvchining bilish qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omildir. Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb tan olindi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari qadam tashlash maqsadida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonini imzolandi. Ushbu Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarilishini ta’minlash, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 134-Farmoni va bir qator Prezident qarorlari qabul qilindi.

Rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

Maktab ta’limida ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli tashkil etish hamda mahalli va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

Jamiyatda o‘qituvchi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

O‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xalq ta’limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta’lim jarayonlarini jadallashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma’qullangan “Pedagoglar maqomi to‘g‘risida”gi qonunda pedagogning etika qoidalari, huquqi, majburiyati, vazifalari haqida aytib o‘tilgan.

Iste’molda pedagog va o‘qituvchi atamasini sinonim sifatida ishlatamiz. Bir qaraganda bu to‘g‘ri, ammo ayrim qirralari bilan ikkisi bir-biridan farq qiladi. Ya’ni, pedagog (yun. paidagogos - tarbiyachi) - pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsdir. O‘qituvchi esa umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiladigan mutaxassisdir.

Zamonaviy ta’lim-tarbiyada pedagogning o‘rni – bu kelajak jamiyatini shakllantirishdagi eng muhim poydevor hisoblanadi. Ustoz – bu nafaqat o‘qituvchi, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, motivator, tarbiyachi va do‘st. Bugungi davr pedagogdan chuqur bilim, yuksak axloqiy fazilatlar, ijodkorlik va doimiy o‘zgarishlarga tayyorlikni talab etmoqda. Shu bois, har bir jamiyatda pedagog shaxsining maqomi va nufuzini



oshirish – bu kelajak sari tashlangan eng oqilona qadamdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik- T.: SANO-STANDART, 2017.
2. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev, *Pedagogika. Darslik T.: O‘qituvchi 2018 yil.*
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2011425 b.
4. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. [marifat.uz](http://marifat.uz)